



GOLSHTIN ZOTIGA MANSUB SIGIRLARD A JINSIY ORGANLAR FUNKSIYALARINI STEMULLASH VA SINXRONLASH

S. A. Suvanov

Tayanch doktorant Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Annotasiya:

Ushbu maqolda golshtin zotli sigirlarda tuxumdonlar gipofunksiyasi natijasida yuzaga keladigan bepushliklarda jinsiy organlar funksiyasini stemullash va sinxronlash bayon qilingan.

Kalit soʻzlar: tuxumdonlar, gipofunksiya, sariq tana, bepushtlik, kuyikish, reproduktiv aʼzolar, follikulyar kista, nimfomaniya.

Mavzuning dolzarbligi.

Respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlari aholini sifatli goʻsht va sut bilan taʼminlashni yaxshilashga qaratilgan boʻlib, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mahsuldor sigirlarda reproduktiv aʼzolar kasalliklari va funksiyalarining buzilishi oqibatida bepushtliklarning kuzatilishi sigirlarda mahsuldorlik va ulardan bola olishning kamayishi, yuqori mahsuldor hayvonlardan xoʻjalikda foydalanish muddatlarining qisqarishi hisobiga katta iqtisodiy zararga sabab boʻlmoqda.

Respublikamiz fermer xoʻjaliklariga xorijdan keltirilgan sigirlar orasida persistent sariq tana kasalligini oldini olish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya etish tadqiqotlarimiz maqsadini tashkil etadi.

Barcha turdagi urgʻochi uy hayvonlarida tuxumdonlar funksiyasi vaqtincha susayishi mumkin. Bunday susayish uzoq davom etadigan boʻlsa, tuxumdon atrofiyaga uchraydi. Qari hayvonlarda ham fiziologik atrofiya vujudga keladi. Amaliyotda tuxumdonlar funksiyasining susayishi va ularning patologik atrofiyaga uchrashi koʻproq sodir boʻladi.

Tuxumdonlar funksiyasining susayishi va ularning atrofiyasi ogʻir kasalliklar yoki hayvonlarni notoʻgʻri parvarishlash va oziqlantirish natijasida kelib chiqadi. Toʻliq fiziologik rivojlanmagan hayvon birinchi marta tuqqanida koʻpincha tuxumdonlar



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

gipofunksiyasi kuzatiladi. Yetarli oziqlantirmaslik, rasionda mineral moddalar va vitaminlarning yetarli bo'lmashligi tuxumdonlar faoliyatining susayishiga olib keladi. Bir tomonlama o'ta to'yimli oziqlantirish ham tuxumdonlarda yog'to'planishi va follikulalarning degenerasiyaga uchrashi tufayli tuxumdonlar funksiyasining susayishi va atrofiyasiga sabab bo'lishi mumkin.

Hayvon yetarlicha oziqlantirilmaganda organizm zaiflashadi, bu jinsiy jarayonlarga ta'sir etadi (kuyikish va ovulyasiya bo'lmaydi). Hayvonlar oqsil, uglevod yoki yog'larga boy bir xildagi oziqalar bilan uzoq muddat boqilganda tuxumdonlar funksiyasi susayib, ularning maxsus to'qimasi asta-sekin yog'kletchatkasi bilan almashinadi. Semirib ketgan hayvonlarning tuxumdoni kichrayibgina qolmay, balki zichlashadi ham, bunda urg'ochi hayvon avvaliga qisqa muddatga kuyukadi, keyin esa butunlay kuyikmaydi.

Adabiyotlar [6] ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarda modda almashinuvlarining buzilishi va reproduktiv xususiyatlarining yomonlashishiga essensial mikroelementlarning (I, Co, Zn, Cu, Fe) rasionda yetishmasligi hamda hayvonlarni antisanitariya sharoitlarida saqlash sabab bo'ladi.

Tuxumdonlarda qon aylanishi va oziqlanishini yaxshilash maqsadida har bir tuxumdon 3-5 daqiqa davomida massaj qilinadi. Tuxumdonlar faoliyatini qo'zg'atish uchun yestrogenlar bilan birga vagotron moddalar ham ishlatiladi: teri ostiga 0,5%-li prozerin eritmasi yoki 0,1%-li karboxolin eritmasi 2-3 ml yuboriladi, shundan 5 kun o'tgach yesa 0,005%-li stilbestrol eritmasidan 2 ml muskul orasiga yoki sinestrolning 1%-li yog'li eritmasidan 1-1,5 ml teri ostiga yuboriladi. Kuyga kelishini yaxshilash uchun ineksiyani 24-28 soat oralatib, 4-5 marta takrorlash kerak.

Sinxronlash usullaridan birining mohiyati shundan iboratki sigir va tanalarga 6-15 kun davomida progestogenlardan biri (progesteron, magestrol asetat va b.,) ineksiya qilinadi, undan keyin BBQZ (bo'g'oz biya qon zardobi) yoki estrogenlardan biri ineksiya qilinadi. Yana bir variantda jinsiy qo'zg'alishni sinxronlashda prostoglandin $F_{2\alpha}$ yoki uning sintetik analoglari (10-11 kun oraliq bilan 2 marta) qo'llaniladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, sigirlarda tuqqandan keyin bachadon va boshqa jinsiy a'zolar invalyusiyasi tugagach ko'p hollarda tuxumdonlar gipofunksiyasi qayd etiladi. Mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, tuxumdonlar gipofunksiyasining asosiy

Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

sabablari moddalar almashinuvi va jinsiy jarayonlarni boshqaruvchi gormonlar o‘zaro nisbatlarining buzilishlari hisoblanadi.

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, sigirlarning asosiy podadan chiqarilishiga 80-90% hollarda bepushtliklar, modda almashinuvlarining buzilishi kasalliklari – 74-90%, sut bezlarining kasalliklari – 17%, tuxumdonlar gipofunksiyasi – 19%, tuxumdonlarning follikulyar va lyuteal kistalari – 3%, oyoqlarning kasalliklari – 15-17 %, ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari - 14-16%, mahsuldorlikning past bo‘lishi – 18 % hollarda sabab bo‘ladi. Sigirlardan xo‘jalikda foydalanish o‘rtacha



2,6 laktasiyaga teng bo‘lgan.

Tadqiqotning maqsadi. Golshtin zotiga mansub sigirlarda persistent sariq tana natijasida yuzada keladigan bepushtliklarni davolashda sinxronlash usullaridan foydalanish.

Tadqiqotlarning obekti va usullari. Tadqiqot ishlari Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani “Bobur chorvasi” qoramolchilik fermer xo‘jaligida olib borildi. Tekshirish obekti sifatida 15 bosh 4-5 yosh chetdan keltirilgan golshtin zotiga mansub 2-tug‘um sigirlar tanlab olinib, har oyda bir marta klinik-ginekologik tekshirishlardan o‘tkazildi. Sigirlar bo‘g‘ozligi tug‘ri ichak orqali va zamonaviy JQ 3000 ultrasaund

ultratovushli tekshirish apparati yordamida aniqlandi va bepusht sigirlar ajratib olindi.

Olingan natijalar tahlili: Fermer xo‘jaligida jami 15 bosh persistent sariq tana bilan kasallangan sigirlar ajratib olinib, ular 2 ta tajriba va 1 ta nazorat guruhiga 5 boshdan ajratildi.

Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

1-jadval

Guruhlar	Bosh soni	Qo'llanilgan dori vositalar	Tajribalarning 10-kuni kuyga kelgan sigirlar soni	O'talanish darajasi %	28 kundan sung ultratovushli tekshirish narijalari
I tajriba	5	Utreton muskulga 15 ml E-selen vitamin 15 ml muskulga Bachadon masajj 3-5 daqiqa	3	60	3
II tajriba	5	Fertadin 2 ml, 1 haftadan sung, Gondin 2 ml , 2 kundan sung Fertadin 2 ml muskulga in'eksiya qilindi	5	80	4
III nazorat	5	Tug'ri ichak orqali 3-5 daqiqa bachadon massaj qilindi	1	20	1

Xulosa:

Sigirlarda persistent sariq tana kasalligini ertachi aniqlashda ultratovushli tekshirish apparatidan foydalanish tuxumdon kasalliklariga aniq ertachi diagnoz qo'yishga imkon beradi.

Tajribalardan ko'rinib turibdiki jinsiy organlar kasalliklarini sinxronlash va stemullash orqali mahsuldor sigirlar orasida yuzaga keladigan bepustliklar oldi olinadi va shu bian birgalikda bir yilda 100 bosh sigirdan 100 bosh buzoq olish imkoni yaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Варганов А.И., Чупраков В.Г., Созинов В.А. «Лекарственные средства в ветеринарной акушерско-гинекологической практике». Киров, 2003. Www.гугле.ру
2. Дюльгер Г. П., Храмцов В.В. и др., Лекарственные средства, применяемые в ветеринарном акушерстве, гинекологии, андрологии и биотехнике размножения животных: Справочное пособие. - СПб.: Издательство «Лань», 2016,- 272 с.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

3. Сафиуллов Р.Н. Лечебно-профилактическая эффективность препарата "Экстракт плаценты с лещиной" при катарально-гнойном эндометрите коров. автореф. дисс...канд. вет.наук. Казан. 2009. С. 2-5.
4. СИОН-Исроил компанияси менежери Дани Глад томонидан тақдим етилган презентасия материаллари. Паяриқ тумани қ/х касб хунари коллежи. 03.2011.
5. Соколова О.В. Оценка биоресурсного потенциала высокопродуктивных коров при разных технологиях содержания. Автореф.дисс... канд. биол. наук. – 2007. С 19.
6. Студенцов А.П., Шипилов В.С., Никитин В.Я. и др. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения. Москва, Колос, 1999.
7. Чомаев А.М., Чернишева М.Н., Голдина А.А. Молочная продуктивность и сроки осеменения коров. Ж.Зоотехния, №6, 2003, с.30.
8. Eshburiyev B.M. Veterinariya akusherligi. Toshkent, Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2018
9. <http://vak.ed.gov.ru/common/img/uploaded/files/vak/announcemens/Veterinar/2009/1506/Koba I.S.>
10. <http://bd.patent.su/2372000-2372999/pat/servlet/servlet5ae1.html>
11. <http://webmvc.com/bolezni/livestock/tocology/retentio.php>
12. http://www.allvet.ru/diseases/vet_obstetrics/vet_obstetrics4.php